

KOGNITIV METAFORANING INSON TAFAKKURIDAGI O'RNI

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

muattarsotvoldiyeva98@gmail.com

Annotatsiya Metafora mavzusi tilshunoslar uchun uzoq vaqt davomida diqqat markazida bo'lib kelmoqda, ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan uzbviy bog`langan yangi g`oyalalar yaratish mexanizmini aniqlashdagi ustuvor omildir. Kognitiv metafora esa, albatta, inson tafakkuri va bilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada metaforaning inson tafakkuri bilan bog'liqligi va uning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *metafora, kognitiv metafora nazariyasi, tafakkur, obrazli fikrlash, tushuncha, kognitiv tasavvur, idrok etmoq.*

THE ROLE OF COGNITIVE METAPHOR IN HUMAN THINKING

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi

PhD candidate at Fergana State University

Abstract Metaphor has been a subject of focus for linguists for a long time and has been thoroughly studied by both domestic and foreign scholars. Issues of language and thinking are a key factor in identifying the mechanism of creating new ideas that are closely connected with cognitive processes in the human mind. Cognitive metaphor, undoubtedly, influences human thinking and cognition. This article analyzes the relationship between metaphor and human thought, as well as its significance.

Keywords: *metaphor, cognitive metaphor theory, thinking, figurative thinking, concept, cognitive representation, perceive.*

РОЛЬ КОГНИТИВНОЙ МЕТАФОРЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ МЫШЛЕНИИ

Сотволдиева Муаттархон Икромжон қизи

Стипендиат аспирантуры Ферганского государственного университета

Аннотация Тема метафоры уже долгое время находится в центре внимания лингвистов и глубоко изучается как отечественными, так и зарубежными учёными. Вопросы языка и мышления являются приоритетным фактором в

выявлении механизма создания новых идей, тесно связанных с познавательными процессами в человеческом сознании. Когнитивная метафора, безусловно, оказывает влияние на мышление и процессы познания человека. В данной статье проанализирована взаимосвязь метафоры с человеческим мышлением и её значение.

Ключевые слова: метафора, когнитивная теория метафоры, мышление, образное мышление, понятие, когнитивный образ, воспринимать.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida lingvokognitiv, lingvomadaniy munosabatni o'rganishga e'tibor kuchayganligi ularni o'zida yaqqol aks ettiruvchi kognitiv metaforaning tadqiqi zarurati muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Inson tafakkuri obrazli fikrlash orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababdan metaforalar tilning faqat estetik yoki adabiy vositasi emas, balki inson ongiga bevosita ta'sir qiluvchi kuchli psixologik mexanizmdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metaforalar orqali inson hissiyotlari, qarashlari va tushunchalari shakllanadi.

Metafora va aynan, kognitiv metaforaning inson ongi bilan bog'liqligi va muhim ahamiyat kasb etishi tog'risida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Bulardan J.Lakoff va M.Jonson o'zining "Metaphors we live by" asarida keng yoritib bergan. Ularning fikriga ko'ra: "Bizning odatdagи konseptual tizimimiz metaforik tarzda tuzilgan, ya'ni ko'p tushunchalar qisman boshqa tushunchalar nuqtai nazaridan tushuniladi." [1,57]⁷ Bundan tashqari ular metafora faqat tilga emas, balki tafakkur va harakatga — ya'ni kundalik faoliyatimiz va dunyonи tushunish tarzimizga xos xususiyat ekaniga ishonadilar. Ularning fikricha, biz o'ylaydigan va harakat qiladigan oddiy tushuncha tizimimiz aslida metaforik tabiatga ega.

Olimlarning bu fikrlardan insonning tushunchalari va fikrlash usullari ko'p holatlard a boshqa tushunchalar orqali shakllanadi va yangilanadi va bu metaforalar orqali sodir bo'ladi. Bundan tashqari, metaforik fikr yuritish orqali insonlar fikrni yana ham kengaytirishi mumkin. Bu nuqtai nazardan qaraganda, inson tushunchalari va fikrlash uslublari ko'plab hollarda boshqa tushunchalar orqali shakllanadi, o'zgaradi va yangilanadi. Aynan metaforalar bu shakllanish va rivojlanish jarayonining vositachisi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, metaforik fikrlash inson tafakkurining chegaralarini kengaytirishga, abstrakt tushunchalarni aniqlashtirishga va yangi g'oyalarni yaratishga xizmat qiladi. Metaforalar orqali inson o'zining kognitiv tajribasini tizimlashtiradi, murakkab fikrlarni soddalashtiradi va ularni boshqalar bilan samarali tarzda baham ko'ra oladi. Shunday qilib, metafora nafaqat til unsuri, balki bilim olish va tafakkurni shakllantirishning markaziy mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Kognitiv

⁷ George Lakoff and Mark Johnsen. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – 57p

metaforalarning asosiy vazifasi inson miyasining analogik qobiliyatlarining voqeahodisasi sifatida aynan mana shu metaforalar orqali amalga oshirilishi hisoblanadi. “Zamonaviy kognitiv fanda metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi”[2,390]⁸ Bu fikrni inson fikrlashiga bog’laydigan bo’lsak, metaforalar asosan, mavhum tushunchalarni aniq tushunishga yordam berishi nazarda tutilgan va tafakkurning chuqur kognitiv mexanizmi ekanligi aytilgan. Metaforalar til va tafakkur o’rtasidagi ko’prik vazifasini bajaradi. U faqatgina qanday fikrlashimizga emas, balki dunyoni qanday his qilishimizva qanday qaror qabul qilishimizga ham o’z ta’sirini o’tkazadi. Shu bois hozirgi kunda zamonaviy kognitiv fanda metaforani inson idrokining markaziy elemnti sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Kognitiv metaforani o’rganish davomida yana bir fikrga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “Tilda mavjud bo’lgan narsalar, albatta fikrlashda bo’ladi, ammo fikrlashdagi mavjud har narsa tilda ifodasini topavermaydi”[3,295]⁹ Bu fikrlardan albatta, inson fikrlashi qanchalik murakkab jarayon ekanligini va ba’zan uni til orqali ifodalashning imkonii bo’lmashligi tushuniladi. Chunki inson ba’zan biror narsani tasavvur qiladi yoki his qiladi, ammo uni aniq va to’liq qilib ifodalay olmaydi. Bu esa tafakkur imkoniyatlarnining til imkoniyatlaridan kengroq ekanini bildiradi. Kognitiv metaforalar yordamida esa, inson narsalar, voqeahodisalarini kategoriyalashi mumkin. Masalan, tanish bo’lmagan it zotiga duch kelganda, inson odatda bu zotni itlar kategoriyasiga, mushuklar yoki qushlar kategoriyasiga emas, to’g’ri bog’laydi. Kognitiv metaforalar yordamida inson o’z tajribalarini konseptual kategoriyalarga ajratadi, voqelikni tushunish va tasniflash imkoniyatiga ega bo’ladi. Masalan, tanish bo’lmagan bir it zotiga duch kelgan inson, avvalgi tajribasi asosida bu mavjudotni itlar kategoriyasiga kiritadi, uni mushuklar yoki qushlar bilan aralashtirmaydi. Bu esa shuni ko’rsatadiki, inson ongida mavjud bo’lgan konseptual xarita metaforik asosda tuzilgan bo’lib, u yangi voqealarni mavjud bilimlar va tushunchalar orqali qabul qilishni osonlashtiradi.

Kognitiv metafora orqali inson bilish faoliyatida yangi va notanish narsalarni tushunarli shaklda qabul qiladi, ularni mavjud bilim doirasiga joylashtiradi. Bu esa nafaqat tilda, balki ongda sodir bo’ladigan umumlashtirish va taqqoslash jarayonlarining samarali bo’lishiga olib keladi. Shu bois, kognitiv metafora inson tafakkurining nafaqat ifoda vositasi, balki bilish va anglashning ham faol vositasidir. Inson tafakkuri, fikrlashi haqida gapirliganda, avvalo, dunyoni idrok etish tushuniladi va bu turli insonlarda, turli xalqlarda farqli ravishda amalga oshiriladi. Bu kognitiv faoliyat natijalaridagi farqlar

⁸ Yusupova A. Kognitiv metaforaning dunyo tilshunosligida o’rganilishi. “O’zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2003.– B. 390.

⁹ Н.А. Лаврова. КОГНИТИВНАЯ МЕТАФОРА КАК СПОСОБ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЗНАНИЯ В ЯЗЫКЕ И КАК ОСНОВОПОЛАГАЮЩИЙ ПРИНЦИП ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ. “ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ НАУКА ВУЗАМ”,- 2015.- С.295.

bilan isbotlangan. Kognitsiyaning til farqlariga ta'sirini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri V. fon Gumboldtning "narsalarni ko'rishning turli usullari" deb ataganidir[4,156]¹⁰. V. fon Gumboldtning yuqoridagi fikrlaridan biror holat yoki obyektni idrok etishda idrok subyekti, bilim daraja va tajriba muhimligini tushunish mumkin. Bu esa, albatta bir xil vaziyatni turli nuqtai nazar va qarashlardan tasvirlash imkonini beradi. Agar bu fikrga kognitiv jihatdan yondoshsak, inson miyasi narsalarni mavjud bilimlar asosida talqin qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kognitiv tilshunoslik, kognitiv metafora va tafakkur masalalari o'rganilganda, "tushuncha" (concept) terminiga alohida urg'u beriladi. Chunki tushuncha inson tafakkurining asosiy birligi hisoblanadi. U til orqali ifodalanadigan va olam haqidagi bilimlani tashkil etadigan kognitiv birlikdir. Kognitiv tilshunoslikda tushuncha faqat lisoniy birliklarga emas, balki inson tajribasi, sezgi, idrok va madaniyatga asoslangan holda shakllanadi. Tafakkur jarayonida tushuncha uning aoasiy qurilish materiali hisoblanadi. Insonlar o'zida mavjud bilimlarni aynan tushunchalar orqali qabul qiladi, qayta ishlaydi va kontekstda qo'llaydi. S.A. Askoldov-Alekseev konseptni muayyan turdagи predmetlar, harakatlar, fikrlash funksiyalarining noaniq to'plamini fikr jarayonida o'z o'rnini bosuvchi fikriy yaratish sifatida belgilaydi. Bu yerda, "noaniq to'plam" tushunchasi bir-biriga o'xshash va yaqin bo'lgan g'oyalarni, voqeа-hodisalar to'plamini anglatadi. Kognitiv metafora yordamida esa shu kabi tushunchalarni anglash va tushunish yanada chuqurlashadi.

Ular turli xil tushunchalarni mazmun jihatdan boyitish, ma'nolarini kengaytirish va tushunish jarayonini yanada chuqurrroq amalga oshishiga yordam beradi. Bu jarayonda esa til nafaqat inson tafakkurining ifodasi, balki uni yangidan shakllantiruvchi vositaga aylanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, tushuncha faqat til birligi sifatida emas, balki insonning shaxsiy tajribasi, sezgi, idrok va madaniy kontekst asosida shakllanadigan murakkab bilish strukturasi sifatida talqin qilinadi. Ya'ni tushuncha nafaqat lug'aviy ma'no doirasida, balki inson ongidagi chuqur bilim va tajriba qatlamlarida mavjud bo'ladi. Tafakkur jarayonida tushuncha asosiy "qurilish materiali" sifatida xizmat qiladi: odamlar mavjud bilimlarini aynan tushunchalar orqali qabul qiladi, ularni tahlil qiladi, kontekstda qayta ishlaydi va amalda qo'llaydi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, tushuncha faqat til birligi sifatida emas, balki insonning shaxsiy tajribasi, sezgi, idrok va madaniy kontekst asosida shakllanadigan murakkab bilish strukturasi sifatida talqin qilinadi. Ya'ni tushuncha nafaqat lug'aviy ma'no doirasida, balki inson ongidagi chuqur bilim va tajriba qatlamlarida mavjud bo'ladi. Tafakkur jarayonida tushuncha asosiy "qurilish materiali" sifatida xizmat qiladi: odamlar

¹⁰ Gumboldt V. O. O razlichii stroeniya chelovecheskih yazykov i ego vliyanii na duhovnoe razvitiie chelovechestva// Gumboldt V. Izbrannye trudy po yazykoznaniiyu. – M., 1984.– S. 156-180.

mavjud bilimlarini aynan tushunchalar orqali qabul qiladi, ularni tahlil qiladi, kontekstda qayta ishlaydi va amalda qo'llaydi.

XULOSA

Kognitiv metaforalar inson tafakkurida mavjud tushunchalarni yaratish va tuzishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular tushunchalarni anglash, boyi tish va chuqurlashtirish imkonini beradi, shu bilan birga, yangi bilimlarni mavjud tajriba va tushunchalar asosida kategoriyalashga yordam beradi. Kognitiv metafora inson tafakkurining nafaqat til, balki fikrlash va idrok jarayonlariga ta'sir qiladi. Ular ko'pincha murakkab, abstrakt g'oyalarni aniq va sodda tushunchalarga aylantirishda yordam beradi, bu esa tafakkurni yanada samarali qiladi. Til nafaqat fikrlarni ifodalovchi vosita, balki tafakkurning shakllanishini, rivojlanishini va yangilanishini ta'minlaydigan kuchli mexanizm hisoblanadi. Metafora esa til orqali inson tafakkurining yangi shakllarini yaratishda muhim rol o'yinaydi. Ular tushunchalar va g'oyalarni aniqlashda va anglashda muhim vosita bo'lib, ilmiy tadqiqotlarda, kundalik hayotda va kommunikatsiyada samarali qo'llaniladi. Kognitiv metaforalar orqali insonlar voqeа-hodisalarni va yangi tajribalarni o'zining mavjud bilim doirasiga joylashtiradi.

REFERENCES

1. George Lakoff and Mark Johnsen. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – 57p
2. Yusupova A. Kognitiv metaforaning dunyo tilshunosligida o'r ganilishi. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2003. – B. 390.
3. Н.А. Лаврова. когнитивная метафора как способ представления знания в языке и как основополагающий принцип человеческого мышления. "фундаментальная наука вузам", - 2015.- С.295.
4. Gumboldt V. O. O razlichii stroeniya chelovecheskih yazykov i ego vliyanii na duhovnoe razvitiye chelovechestva // Gumboldt V. Izbrannye trudy po yazykoznaniiyu. – M., 1984. – S. 156-180.
5. A.Ortony // Metaphor and thought. – Cambridge University Press, 1993
6. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория и метафоры. Под редакцией Н.Д.Арутюновой и М.А.Журинской. Э.Кассирер, Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блэк, Дж.Серль, Д.Вежбицка, А.Ортони, Дж.Лакофф, Н.Гудмен и др. – Москва: Прогресс, 1990.
7. Development and Critiques of Conceptual Metaphor Theory.- academy publication., 2021.– p.1488
8. Менглиев Б. Хозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур Бўстони, 2018.
9. Миртожиев М.М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 140 б.